

DAVLATIMIZDA INSON HUQUQLARIGA DOIR XALQARO HUJJATLARNI
AHAMYATI VA DAVLATIMIZDA IJRO HOKIMYATI ORGANLARINI
TASHKILLASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831826>

Nazarov Xurshidbek Shuhrat o'g'li

Karimov Abdukarim Bahriddinovich

Qoraqalpoq Davlat Universiteti “Davlat boshqaruvi huquqi”

2 -kurs magistrantlari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlatimizda inson huquqlari himoyasi fuqarolarimiz chet elda hamda yurtimizda yashash yoki turizm, ishlash, sayohat qilishda turli xildagi muammolarga uchraganda uning huquqlari himoya qilinishi va bunda xalqaro hujjatlarning ahamyati va yurtimizda ijro hokimiyati organlarini o'zni haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *qo'rquv, organlar, xalqaro, erkinliklar, milliy ma'ruz, zulm va istibdod.*

Abstract: *This article discusses the protection of human rights in our country, the protection of the rights of our citizens when they face various problems in living abroad and in our country during tourism, work, travel, and the importance of international documents and the role of executive authorities in our country.*

Keywords: *fear, bodies, international, freedoms, national subject, oppression and tyranny*

Абстрактный: *В данной статье рассматривается защита прав человека в нашей стране, защита прав наших граждан при возникновении у них различных проблем в проживании за границей и в нашей стране во время туризма, работы, путешествий, а также значение международных документов и роль исполнительной власти в нашей стране.*

Ключевые слова: *страх, тела, интернационал, свободы, национальный субъект, угнетение и тирания*

Mustaqil demokratik yo'ldan dadil odimlayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan e'tiborlidir. Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, Bosh Qomusimizning II bob 13 moddasida “O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va Qonunlar bilan himoya qilinadi” deyilgan.

Yurtimizda inson huquq va erkinligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga hamohang tarzda faoliyat yuritayotgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ham shu kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga kamarbastalik qilmoqda. Joriy yil 31 oktyabr kuni Markaz tashkil etilganligiga 18 yil to'ladi. O'tgan davr mobaynida mazkur Markaz o'z oldidagi o'ta dolzarb sanalgan milliy harakat rejasini tuzish, Konstitutsiyamiz, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish, mamlakatimizda inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar berish, inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilishning turli jihatlarini yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda.

Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligini e'tiborga olib;

inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir deb e'lon qilinganligini e'tiborga olib;

inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko'tarishga majbur bo'lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini e'tiborga olib;

xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish zarurligini e'tiborga olib;

Birlashgan Millatlar xalqlari insonning asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligiga, o'z e'tiqodlarini Nizomda tasdiqlaganliklari hamda yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib;

a'zo bo'lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish va unga rioya qilishga ko'maklashish majburiyatini olganligini e'tiborga olib;

mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini yalpi tushunish ushbu majburiyatlarning to'liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lishini e'tiborga olib;

Bosh Assambleya mazkur Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilar ekan, bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu

Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta'minlanishiga, Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlari o'rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o'rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur.

1-MODDA

Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak.

2-MODDA

Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur.

Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak.

3-MODDA

Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil qilishga yo'naltirilgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni belgilash maqsadida:

1. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari – vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar va inspeksiyalar (keyingi o'rinlarda – vazirlik va idoralar) hamda ular hududiy va tuman (shahar) bo'linmalarining Davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan jami **boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni** 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik va idoralar tizimida jami **17 447 ta** shtat birliklari **qisqartirilayotganligi** ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan **qo'shimcha boshqaruv shtat birliklarini kiritish qat'iyon taqiqlansin.**

2. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari – vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar va inspeksiyalarning yagona ro'yxati hamda ularning to'liq (rasmiy) va qisqartma nomlari 2 va 2a-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 9 dekabrda "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-3358-son Farmoni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Vazirlik va idoralar rahbarlari **uch hafta мyддaт**da har bir vazirlik va idora faoliyatini **mutlaqo yangi tizim asosida tashkillashtirishni** nazarda tutuvchi **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjati loyihasini** kiritсин. Bunda, quyidagilar nazarda tutilsin:

vazirlik va idoralarning aniq asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilash, qabul qilingan **rivojlantirish dasturlari, strategiyalar** va **konsepsiyalarni** amalga oshirish;

sohalarda hal qilinishi lozim bo'lgan **masalalarga yechim** topishga yo'naltirilgan **tashkiliy-huquqiy** va **moliyaviy** chora-tadbirlar, **aholi** uchun **qulay sharoitlar** yaratish, fuqarolarning **tizimli muammolarini** hal etish;

byudjet mablag'laridan **maqsadli va oqilona foydalanish**, davlat xaridlari **shaffofligini oshirish**, shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlari uchun teng imkoniyatlar yaratish orqali davlat xaridlari jarayonida **raqobatni** rivojlantirish;

energiyani tejash, uning samaradorligini oshirish va sohaga **qayta tiklanuvchi energiya manbalarini** keng jalb qilish;

tegishli sohalarda **davlat-xususiy sheriklik** va **outsorsing** mexanizmlarini keng joriy qilish, 2023 yildan boshlab vazirlik va idoralar hamda ularning tizim tashkilotlarining ayrim funksiyalarini bosqichma-bosqich **xususiy sektorga o'tkazish**;

litsenziyalash va **ruxsat berish** tartib-taomillaridagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha **takliflar tayyorlash**. Bunda, litsenziya va ruxsat berish xususiyatiga ega hujjat talab etiladigan faoliyat turi, ularni berish uchun talab etiladigan hujjatlar soni, xizmat ko'rsatish vaqti hamda ularni berish uchun to'lovlar (yig'imlar) **miqdorini kamaytirish**;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (ularga xizmat ko'rsatish, davlat tomonidan subsidiya taqdim etish, imtiyoz berish va boshqacha tartibda qo'llab-quvvatlash) hamda **aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish**;

sohani rivojlantirish dasturlari uchun jalb qilinadigan **grant** va **texnik ko'mak mablag'larining** prognozi hamda uning aniq yo'nalishlarini belgilash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish **guruhlarini faoliyatini** qayta ko'rib chiqish;

vazirlik va idoralar tizimidagi davlat unitar korxonalari (muassasalari), mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hamda davlat ulushi bo'yicha aksiyalar paketi boshqaruviga berilgan xo'jalik yurituvchi **sub'ektlarning faoliyatini** qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ulardagi davlat ulushini **xususiylashtirish** bo'yicha taklif tayyorlash;

vazirlik va idoralar hamda ularning tizimidagi tashkilotlar tomonidan nazorat funksiyalarini "**xavfni tahlil etish**" tizimi natijalari asosida amalga oshirish tartibini takomillashtirish, shuningdek, ularni **muvofiqlashtirish** va **nazorat funksiyalarini maqbullashtirish**;

vazirlik va idoralar hamda ularning tizimidagi tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari va aholiga **davlat xizmatlari** ko'rsatishning **modelini takomillashtirish**;

vazirlik va idoralarda hamda ular tarkibiga kiradigan tashkilotlar kesimida **korrupsiya avj olgan sohalarda** uning rivojlanish sabablari va shartlarini

o'rganish asosida ushbu sohalarining har biriga "tashxis qo'yish" hamda korrupsiya omillarini bartaraf etish;

sohaga **axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini** keng joriy etish, shu jumladan, vazirlik va idoralarning ish jarayonini **raqamlashtirish**;

sohada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning **kasbiy mahorati** va **mas'uliyatini** oshirish, tizim tashkilotlariga tashabbuskor, fidoyi, sadoqatli, o'z ustida doimiy ishlaydigan **kadrlarni jalb qilish** hamda ularning **salohiyatini doimiy ravishda oshirib borish**;

vazirlik va idoralarning **tashkiliy tuzilmalarini tasdiqlash**, ular tarkibiga kiritilgan muassasalarning faoliyatini takomillashtirish;

qonunchilik hujjatlarini to'liq xatlovdan o'tkazish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur bo'lgan **normativ-huquqiy hujjatlarni bir-biriga muvofiqlashtirish**.

4. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari – vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar va inspeksiyalarda tarkibiy bo'linmalarni shakllantirish hamda lavozimlarni joriy etishga oid yagona talablar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik va idoralar rahbarlari shtatlar jadvallarini ishlab chiqish va ro'yxatdan o'tkazishda mazkur Farmon bilan tasdiqlanayotgan yagona talablarga **qat'iy amal qilsin**.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (**Sh.Kudbiyev**) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (**B.Musayev**) bilan birgalikda **uch oy muddatda** vazirlik va idoralarga yuklatilgan vazifalarni xatlovdan o'tkazish hamda **ishlab chiqarish va yordamchi xodimlarni kiritish bo'yicha shtat normativlarini** tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyhasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

5. Vazirlik va idoralar rahbarlari belgilangan vazifalarining bajarilishini hamda davlat xizmatlari ko'rsatilishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida uch kun muddatda o'z rahbarlari o'rinbosarlari o'rtasida **aniq vazifalar** va **funksiyalarni** taqsimlab, ular faoliyatini samarali tashkil qilsin, shuningdek, ajratilgan mablag'lar doirasida vazirlik va idoralarning **markaziy apparati**, hududiy va tuman (shahar) bo'linmalarining **vaqtinchalik tuzilmalarini**, **shtat birliklarini** hamda **nizomlarini tasdiqlasin**. Bunda:

qayta tashkil etilgan, bo'ysunuvi o'zgartirilgan va tugatilgan davlat boshqaruvi organlarining **tuzilmasi** va **shtat birliklari** inobatga olinsin;

ish haqi va boshqa xarajatlar **vaqtinchalik xarajatlar smetasi** doirasida amalga oshirilsin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga vazirlik va idoralarda shtat birliklari maqbullashtirilishi natijasida xodimlar bilan oylik ish haqlari bo'yicha yakuniy o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida vazirlik va idoralarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida, istisno tariqasida, zarur mablag'larni **2023 yilning 1-choragi uchun rejalashtirishga ruxsat berilsin**.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh.Kudbiyev) vazirlik va idoralar rahbarlari tomonidan tasdiqlangan shtat birliklari doirasida ish haqi va boshqa xarajatlar uchun belgilangan tartibda **mablag' ajratilishini ta'minlasin.**

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining **hujjatlari** bilan tasdiqlangan vazirlik va idoralarning markaziy apparatlari, hududiy va tuman (shahar) bo'linmalarining **tuzilmalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.**

7. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B.Musayev) ma'muriy islohotlar doirasida yangi tashkil etilgan vazirlik va idoralarga **shtatlar jadvalini tuzish, xodimlarni ishga qabul qilish, mehnat munosabatlarini davom ettirish va bekor qilish**ni rasmiylashtirish bo'yicha tushuntirish ishlarini, shuningdek, **mehnat qonunchiligi talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni** amalga oshirsin.

Belgilansinki, qo'mitalar, agentliklar va inspeksiyalarda yangi rahbariyat shakllangunga qadar xodimlarni ishga qabul qilish va mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish ishlari mazkur idoralarda amalda faoliyat yuritayotgan **rahbarlar** (rahbarlar mavjud bo'lmasa ularning o'rinbosaridan biri) **tomonidan amalga oshiriladi.**

8. Belgilab qo'yilsinki:

yangi tashkil qilingan va qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralar faoliyati tugatilgan yoki qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralarning tegishli **huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;**

2023 yil 1 yanvardan boshlab qayta tashkil etilgan va faoliyati tugatilgan davlat organlarining ish yurituvida bo'lgan litsenziyalash, ruxsat berish, xabardor qilish va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi **hujjatlar va arizalar tegishlilik** bo'yicha yangi tashkil etilgan hamda tugatilayotgan tashkilotning tegishli funksiyalari o'tkazilgan **vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshiriladi;**

davlat unitar korxonalarida xodimlar soni, ularning **mehnatigahaq to'lash va rag'batlantirish shartlari** hamda **xizmat avtotransport vositalarining cheklangan soni va turlarini tasdiqlashda** Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan **majburiy ravishda** kelishiladi.

Adliya vazirligi (A.Tashkulov) Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) bilan birgalikda **uch kun mudatda:**

barcha yangi tashkil etilgan vazirlik va idoralar **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga** va "Litsenziya" axborot tizimiga ulanishini;

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va "Litsenziya" axborot tizimi orqali kelib tushgan va ko'rib chiqish jarayonida bo'lgan hujjatlar va arizalarning tegishlilik bo'yicha yangi tashkil etilgan vazirlik va idoralar orasida **qayta taqsimlanishini ta'minlasin.**

9. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh.Kudbiyev) **uch oy mudatda:**

yuridik maqomga ega bo'lgan jamg'armalar ijro etuvchi organlarining (direksiyalar, boshqaruv qo'mitalari va departamentlari hamda boshqalar) faoliyatini tugatish, ularning funksiyalarini tegishli vazirlik va idoralarga o'tkazish;

vazirlik va idoralarda xizmat avtotransport vositalaridan foydalanish tizimini ilg'or tajriba asosida tanqidiy tahlil qilgan holda, ularning sonini va saqlash xarajatlarini qisqartirish, mazkur vazifani autsorsing tizimi asosida tashkil etish yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

10. Adliya vazirligi (A.Tashkulov) vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kiritсин.

11. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari S.U.Umurzakov zimmasiga yuklansin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 979-modda;
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2018-y., 06/18/5304/0591-son; 03.03.2018-y., 06/18/5329/0846-son; 04.05.2018-y.,
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. © 2015 - 2023 – *www.constitution.uz*